

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12569904>

“OLTIN ZANGLAMAS” ROMANIDA IMON-E’TIQOD VA URUSH FOJIASI TASVIRI

Muhammadova Maftuna

Jizzax DPU o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada yozuvchi Shuhratning “Oltin zanglamas” romanidagi urush davri fojialari, insondagi imon-e’tiqod masalasi qiyosiy tahlillar orqali o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi, sotqin, urush, obraz, mакtab, asar, roman, o‘quvchi, millat, yozuvchi.

Yozuvchining «Oltin zanglamas» asarini o‘qiganimda bosh qahramon Sodiq timsolida adibning o‘zi tasvirlangan, degan fikr uyg’onadi. Buni adabiyotshunos Ibrohim G’ofurov o‘z esdaliklarida shunday xotirlagandi: «Esimda: «Shinelli yillar», «Oltin zanglamas»larni ilk bora o‘qiganda, bu ikki o‘ziga xos bag’ri keng asarning Elmurod va Sodiq ismli bosh qahramonlari baayni Shuhrat akaning o‘zi ekanligini ko‘rib, tuyib, hayratga tushganman». Umri davomida haqiqatni o‘ziga yalov qilib olgan adibning «Jannat qidirganlar» asarini «Oltin zanglamas» romanining davomi deyish mumkin. Aynan shu asari uchun ham adib ko‘plab ta’qiblarga uchraydi, yozuvchini millatchilikda ayblashadi.

Kishida badiiy asarni to‘g’ri anglash, ta’sirlanish fazilati adabiy asar o‘qish bilan o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, badiiy asarning mohiyatini anglab yetish uchun har bir kishi muayyan darajada estetik tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak, umummilliy miqyosda mакtab amaliy ta’limi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Ya’ni adabiy ta’lim vositasida mакtabni bitirgan o‘quvchida badiiy asarni o‘qish va anglash

bo‘yicha muayyan tushunchalar shakllantirilishi, badiiy tahlilning ilk ko‘nikmalari yuzaga keltirilishi kerak. Badiiy asar ko‘zdan kechirilayotgan paytda muallifning, o‘quvchilarining dunyoqarashi hisobga olinsagina, tahlil to‘laqonli bo‘lishi mumkin. Muallifning dunyoqarashini yaqqol tushunib, to‘g‘ri xulosa qilinmasa, asar mohiyatini to‘g‘ri anglab yetib bo‘lmaydi.

Shuhratning “Oltin zanglamas” asari 1967-yil yozilgan bo‘lib, romanda ma’rifat sohibi – o‘qituvchi degan sharafli kasb ulug‘lanib, dunyoda yaxshi insonlar ham, yomon insonlar ham bor ekanligini hamda odamiylik, insoniy fazilatlar, insonga bo‘lgan hasad, havas, sof muhabbat va buyuk ona mehri yoritilgan. Va asarda juda ko‘p xalq maqollaridan unumli va samarali foydalanilgan. Yozuvchi birinchidan, hayotda ustozning qadr-qimmati, o‘rni, yosh avlod tarbiyasi va maktabdagagi qadrini oqlaydi hamda o‘sha davrdagi qabih insonlarga ham e’tabor qaratadi. Muallif tasvirlagan obrazlar orqali oddiy insonlarning matonati, fidoiyligi, vatanparvarligi hamda sadoqati aks ettirilgan. Iste’dodli adib asar voqealarini chuqur o‘rganganligi sabab har bir epizod ta’sirli va ishonarli chiqqanligiga guvoh bo‘lamiz. Romanda aks etgan davr voqealar, insoniy muloqotlar, o‘zaro dialoglar, shular bilan bir qatorda o‘qituvchi shaxsining o‘ziga xosligi, fidoiyligi alohida ajralib turadi. Asarni o‘qishimiz davomida qishloqda katta bo‘lgan samimi yigit hamda shaharlik qizning sevgi-muhabbat, bolalik va maktab yillari, urush davri, Sodiqjonning mardligi hamda haqiqiy Ona mehri, sadoqatli yor, befarzand oila, aka-ukalar hayoti hamda laganbardor, ikkiyuzlamachi, sotqin odamlar va sadoqatli do‘sstar tasviriga guvoh bo‘lamiz; asarning keyingi voqealar bilan qiziqaverasiz. Asar boshida Qodirjon va Azizaning muhabbat tarixini o‘qib inson zavqlanadi, menda ham shunaqa sevgi uchrarmikan deb yuragiga tugadi. Aziza misolida adibimiz ayollar va qizlarimiz matonati, bergen ahdida tura olishini isbotlab berganday go‘yo. Qodir atlas ko‘ylakning taftidan ko‘ngliga tushgan uchquni kul bo‘lgandek bo‘ldi. U sevgi ko‘yiga birinchi marta tushgan edi hamda uning xayoli, shamol uchirgan o‘sha atlas ko‘ylak bag’riga o‘ralib yotgan edi. Onasi ko‘klamda, lola saylida tuqqanmi, buncha kulishi chiroyli, bo‘lmasa” deb qo‘ydi o‘zicha. Qodir ishq sharobidan mast bo‘lgan Mashrabday Azizaning janon piyola

jarangidek ovoziga maftunkor ko‘zlariga oshiq bo‘lgan edi. O‘tli muhabbat urush davrida ham ularni tark etmadi. Qodir urushga ketgan vaqtida Aziza ham front kasalxonalaridan biriga borib o‘z burchini ado etdi. Va urushdan so‘ng baxtiyor oila tasvirini yoritib bera olgan. Asarda shu muhabbat qissasi bilan muhabbat degan tushunchaga ta’rif berib ketilgan. Adib asarda “tirnoqqa zor oila” tasvirini keltiradi. “Ular sevishib, sinashib turmush qurgan, Sodiqqa qanchalik qiyin bo‘lmasin lekin buni xotiniga bildirmaslikka urinar edi”. Lekin Jannat esa pana-pana joyga borib yig’lar edi.¹

“Dunyoda befarzandlikdan yomon narsa bormi”, deb yozadi adib. Xalqimizda shunday gap bor: “Ayol quchog’iga beshik ber hayot”. Azaldan, qizlarimiz onalik baxtini, beshik tebratishni, allalar aytuishni orzu qilishgan.

“Qing’ir ishning qiyig’i qirq yildan keyin ham oshkor bo‘ladi”, – degan xalq maqoli bor. Mirsalim o‘z yurtiga josus bo‘lib qaytadi. Yurt qahramoni bo‘lgan Qodirjon bilan uchrashgan vaqtida ichidan nimadir uzilganday bo‘ladi. Yozuvchi asarda Adolat xola obrazida, matonatli ona tasvirini chizib bera olgan. Ota-onas uchun farzand necha yosha kirmasin ilk bora tili chiqqan, ona so‘zini tutilib aytgan yurishni zo‘rg’a eplayotgan jajji go‘dak misolida ko‘rinaverar ekan. Asarda Sodiq qamoqqa tushgandan keyin, Adolat xola juda ham iztirob chekib, anchagina o‘zini oldirib qo‘yadi. Bir jihatdan Sodiqning qamalishi, ikkinchi jihatdan kelinining nobop chiqishi, Adolat xolaga juda qattiq salbiy ta’sir qiladi. Adolat xola Sodiq oqlanmaguncha, qahramon sifatida tan olinmaguncha, oilasiga, o‘ziga otilgan ta’na-tuhmatlardan xalos bo‘limguncha bu duyoni tark etmadi.

Asardagi bosh qahramon Sodiq haqiqiy o‘zbek yigit mard jasur bo‘lib u jamiyat uchun yashaydi. U xalqqa imkonи boricha yordam beradi. Bu dunyoda har doim yaxshilik va yomonlik yonma-yon yurganidek, asarda Mirsalim obrazi ham yomonliklarning boshi, sotqin, qabih kimsa sifatida aks ettirilgan. Asarda yana bir obraz bor bu Jannat. U haqiqatda jannat edi uning bitta aybi farzand ko‘rmadi. Yana bir narsa asardagi qahramonlar ismi xuddi xarakteriga berilgan ismdek mos. Masalan,

¹ Shuhrat. Oltin zanglamas. – T.: Yangi asr avlodи. 2018-yil, 57-b.

Sodiq, Adolat xola, Jannat, Qodir, aziza bu qahramonlar xarakteri asarni po‘qiganda ma’lum bo‘ladi.

“...Qiz shu so‘zni kulib aytdi-yu, yo‘lida davom etdi. Kulganda ikki qator sadaf tishlari bir husniga o‘n husn qo‘shib yubordi. Qiz nariroq borib «gapimni uqdingizmi, yaxshi yigit» degandek yana bir orqasiga qarab qo‘ydi. Mana shu qarash umrida biron qizdan, ayniqsa, «bugun tushdan keyin dum beraman» deb turgan qovundek yetilgan qizdan ikki og’iz shirin so‘z eshitmagan Qodirni adoyi tamom qildi. Qo‘lida daftari bilan ketidan baqrayib qolganini anchadan keyin payqadi. Payqadi-yu, fikrida shu kungacha bo‘lmagan ajib g’alayon boshlanganini, bu g’alayon unga ham shirin, ham vahimali allanarsalar va’da qilayotganini his etdi.”¹

Asardagi ana shu parchadan bilsak bo‘ladiki asar tili juda sodda bo‘lib oson o‘qiladi va o‘quvchiga oson tushuniladi. Unda o‘zbek yigitlarining mardonavoligini onalarning bolalariga bo‘lgan mehrini ko‘rsatib bergen. Bu asarni o‘qib urush va tinchlikning farqini bilamiz va tinchlikning qadriga yetamiz.

¹ Shuhrat. (2018). Oltin zanglamas. – T.: Yangi asr avlod.